

GO'SHT MAHSULOTLARINI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TARTIBI

G'aniyev Saidakbarxon Shokirxon o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali talabasi*

Eshmatov G'ayrat Xurram o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali v.f.b.f.d.*

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idrisxo'ja o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Maqolada turli go'sht rastalariga sotuv uchun olib kelinayotgan go'sht mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasidan o'tkazish tartibi mavzusi ko'rib chiqiladi.

Абстрактный. В статье рассматривается тема ветеринарно-санитарной экспертизы мясной продукции, поступающей в различные мясные ларьки для реализации.

Abstract. The article deals with the topic of veterinary sanitary examination of meat products brought to various meat stalls for sale.

Kalit so'zlar. Veterinariya sanitariya ekspertizasi, laboratoriya, go'sht rastasi, namuna, bozor, parazitlar kasalliklar, aminokislotalar, go'sht tarkibi, quturish, kuydirgi, havfli kasalliklar.

Keywords. Veterinary sanitary examination, laboratory, meat rack, sample, market, parasitic diseases, amino acids, meat composition, rabies, anthrax, dangerous diseases.

Ключевые слова. Ветеринарно-санитарная экспертиза, лаборатория, мясной стеллаж, проба, рынок, паразитарные болезни, аминокислоты, состав мяса, бешенство, сибирская язва, опасные заболевания.

Kirish. Inson xayoti faoliyati davomida doim katta energiya sarflaydi va uning o'rnini qoplash uchun, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qiladi. Shu sababli oqsilga boy bo'lgan oziqalarni iste'mol qilishi talab etiladi. Go'shtni tarkibida boshqa oziq – ovqat mahsulotlariga nisbatan oqsil miqdori juda ko'p. Go'sht tarkibida odam organizmida sintez qilinmaydigan bir qancha aminokislotalar ham mavjud: Triptofan, lizin, lesitin, gistidin va boshqa o'simliklardagiga qaraganda ancha ko'p. Dunyu

aholisining 86%i o'z ratsionida go'shni asosiy o'rinda deb bilishadi. Go'shtni organizm uchun foydali tomonlari juda ham ko'p. Ammo bu mahsulot orqali kelib chiqadigan kasalliklar ham yo'q emas. Ushbu kasalliklarning ko'pchiligi organizm uchun o'ta hatarli hisoblanadi. Go'sht orqali organizm kasallanish holatlarining asosiy sababi bu hayvon so'yilishidan avval turli kasalliklar bilan kasallanganligi yoki hayvon go'shtini belgilangan sharoitlarda saqlanmaganligidir. Shuningdek hayvonni so'yish jarayonidan tortib toki hayvon go'shtini istemolga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda sanitariya qoidalariga rioya etmaslik ham bu mahsulotni keyinchalik istemol uchun yaroqsiz bo'lishiga sababchi bo'ladi. Kasal hayvonlarning go'shti orqali insonga quyidagi havfli kasalliklar yuqishi mumkin: quturish, kuydirgi, leptospiroz, brutselloz, finnoz, trixinoz, echinokokkoz, Shuningdek go'sht saqlash, tashish va boshqa jarayonlarda sanitariya qoidalariga amal qilmaslik natijasida ham u orqali turli parazitlar va boshqa turdagi kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Go'sht orqali kelib chiqadigan asosiy parazitlar kasalliklar trixinoz, teniarinxoz va boshqalar hisoblanadi. Go'sht orqali kelib chiqadigan turli kasalliklarning oldini olishi uchun ham ushbu mahsulot sotuvi amalga oshadigan asosiy joylar: bozor va go'sht rastalariga olib kelinayotgan go'sht mahsulotlari veterinariya sanitariya ekspertizasi mutahassisi tomonidan tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Tadqiqot maqsadi bozor hududiga olib kelinayotgan go'sht mahsulotlarni nazoratdan o'tkazish va go'shtga qo'yiladigan asosiy talablarni o'rganish

Ishning borishi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining va yovvoyi hayvonlarning tana go'shtlari bozorga, sovutilgan, yaxlatilgan va muzlatilgan holatlarda olib kelinadi. Olib kelingan tana go'shtlari butun, ikkiga, yoki to'rtga bo'lingan bo'lishi mumkin.

Ilmiy ish davomida bozorga ichki parenximatoz organlarsiz hamda mayda nimtalanib, bo'lak qilib olib kelingan go'shtlar ekspertiza qilinmadi va bu go'sht mahsulotlarini sotish rad etildi.

Cho'chqani, otini va qoramolni boshi, tanasi bo'lishi kerak. Olib kirilayotgan quyon va yovvoyi quyon shuningdek parrandalar holati talablarga muvofiqligi tekshirildi. Unga ko'ra Quyon va yovvoyi quyon tanasining orqa oyog'ini biridan 3-4 sm uzunlikda terisi shilinmasdan qoldiriladi. Parrandalarni tanasi ichak chovoqlardan holi qilingan holatda olib kelinadi. Majburiy so'yilgan hayvonlar tanasi ekspertiza qilinmadi va kolxoz bozorida sotish uchun ruxsat berilmadi.

Go'shtni veterinariya-sanitariya ekspertiza qilish kolxoz bozorida ma'lum tartibda amalga oshirildi: qoidaga binoan bozorga, go'sht, kalla-pocha olib kelgan shaxs spravka ko'rsatish kerak. Spravkada hayvonni so'yishdan oldingi, holati, go'shti va boshqa mahsulotlari so'yilgandan keyin ekspertiza o'tkazilganligi, shu joyda yuqumli kasalliklar uchramasligi ko'rsatib o'tilishi hamda aniq bayon qilinishi lozim. Go'shtni

tana yuzasiga veterinariya tekshirishidan o'tkazilganligi haqida tamg'a bosilgan bo'lishi ham mumkin. Tekshirishda veterinariya spravkasini to'g'ri yozilganligiga ham e'tibor berish kerak. Spravka qoida asosida to'ldirilgan. Veterinariya vrachi yoki feldsher imzosi va tamg'a bosib tasdiqlanishi kerak. Go'shtni sotish uchun olib kelgan egasida, ma'lum hujjat spravka bo'lmasa, tana go'shtiga veterinariya tekshirishdan o'tkazilganligi haqida tamg'a bosilmagan bo'lsa, bunday paytda tana bilan birgalikda boshi va ichki organlari (o'pka, yurak, jigar taloq, va buyrak) bo'lganda go'shtni ekspertiza uchun qabul qilib tekshirish mumkin. Olingan tekshirish xulosasi, go'shtni sotilishi yoki sotilmasligi haqida xulosa yuritiladi.

So'yish punktlarida, go'sht korxonalarida so'yilgan hayvonlar shu joyda ekspertiza tekshirishdan o'tkazilib tamg'alangan tana go'shtlari, bozorga olib kelingandan so'ng qaytadan ekspertiza qilinib tekshirildi, lekin bozorda joylashgan ayrim firma magazinlariga, to'g'ridan-to'g'ri go'sht korxonalaridan go'sht va go'sht mahsulotlarini olib kelinishi bundan mustasno. Bozorga sotish uchun olib kelingan ot go'shtini tekshirilganligi haqidagi spravkada, otga so'yishdan uch kun oldin malinizasiya o'tkazilganligi to'g'risidagi reaksiya natijasining manfiy ekanligi yozilgan bo'lishi kerak. Bunday tekshirish xulosasi bo'lmasa, go'shtni sotish mumkin emas. Mamuriy-territorial nohiyasi tashqarisidan kiritilgan go'sht va go'sht mahsulotlarining sotish uchun forma №2 veterinariya guvohnomasi bo'lganda sotishga ruxsat etiladi. Bozordagi veterinariya laboratoriyalarida ichki organlarni, tanani va boshqa tekshirishlar umumiy qabul qilingan tekshirish usullari asosida amalga oshirildi. Imkoni boricha hamma ko'rish mumkin bo'lgan tanani yuza qismida joylashgan limfa tugunlari ochib ko'rildi. Sistiserkoz (finnoz) kasalligini bor yo'qligini aniqlash maqsadida bir tuyoqli hayvonlar tanasida sistiserkozni aniqlash uchun ensa, bo'yin, bel va dumba muskullari kesib ko'rildi. Kasal hayvonlardan olingan go'shtlarni (kasallikni boshlanish davrida) sotilib ketmasligi, hamda go'shtda mikroblar borligiga gumon qilinganda bozordagi vetsanekspertiza laboratoriyalarida mikrobiologik tekshirishlar o'tkazildi.

Xulosa. Go'sht orqali yuqadigan kasalliklarning oldini olish uchun aynan ushbu mahsulot sotuvi amalga oshadigan manbaalar doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Har bir olib kelinayotgan mahsulot veterinariya sanitariya ekspertizasi mutaxassisi tomonidan tekshirilishi go'sht orqali tarqaladigan kasalliklarni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.M.Murodov, Veterinariya sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand 2006y
2. S.M.Murodov, Qishloq xo'jalik mahsulotlarining vetsanekspertizasi, qayta ishlash texnologiya asoslari va standartizatsiyasi. Qo'llanma. Samarqand 1997y
3. S.M.Murodov, Chorvachilik va o'simlik mahsulotlarining vetsanekspertizasi texnologiya asoslari. Qo'llanma. Samarqand 1992y.

4. R.Normahmatov, Oziq-ovqat tovarlari sifat ekspertizasi. Darslik. 2008y
5. Veterinariya sanitariya ekspertizasi . majmua . Samarqand 2019

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
2. Nurmamatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.
3. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(15), 41-47.
4. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.
5. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).
6. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-О при химической профилактике колибактериоза цыплят.
7. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 9-13.
8. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI VA TAMOYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.
9. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
10. Davlatov, R., Xujaxonov, S., & Berdiyev, X. (2021). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОФЛОСАНА В ХИМИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКЕ КОЛИБАКТЕРИОЗА КУРИЦ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
11. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures For The Prevention Of Diseases Caused By Disorders Of Bee Nutrition And Feeding Conditions. *Academicia Globe*, 3(03), 5-8.
12. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, 3(1), 1-4.
13. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").
14. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.

15. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPSIS DISEASE IN CALVES. *Ученый XXI века*, (10 (81)), 12-14.
16. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 75-78.
17. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 247-252.
18. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
19. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI Olish chora tadbirlari. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(5), 77-84.
22. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.
23. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 66-69.
24. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. *Scienceweb academic papers collection*.
25. Berdievich, D. R. (2023). PARRANDA ZOTLARI. ZOTLAR KLASSIFIKATSIYASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 74-80.
26. Berdievich, D. R. (2023). BROILER JO'JALARI SAQLANADIGAN BINOLARNI TAYYORLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(4), 68-73.
27. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). QO'YLARDA PARAZITAR KASALLIKLARNI KELIB CHIQUISHINI OLDINI Olish chora tadbirlari. *Scientific Impulse*, 1(10), 241-250.
28. Doniyorjon o'g, I. U. B. (2023). OTLARDA MANQA KASALLIGINI DAVOLASH VA UNI OLDINI Olish chora tadbirlari. *Scientific Impulse*, 1(10), 251-260.

29. Murodjon Turg'un o'g, A., & Ergashevna, G. O. M. T. (2023). ASALARI KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Научный Фокус*, 1(1), 122-131.
30. HUDUDIDAGI, V. S. E. L. B., BO, A. S. U. S. M., BAHOLASH, Y., & G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA BOZOR HUDUDIDAGI ASAL SIFATINI UNDAGI SUV MIQDORI BO 'YICHA BAHOLASH. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 46-48.
31. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 33-36.
32. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 23-30.
33. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 3-13.
34. Berdiyevich, D. R. (2023). PARAZITLARGA QARSHI KURASHISH CHORA-TADBIRLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(1), 14-22.
35. Шамсиддинович, F. O., & Эргашевна, F. M. (2023). МИКОТОКСИКОЗЛАР ВА УЛАРДАН АЖРАЛАДИГАН ТОКСИНЛАРНИНГ ХАЙВОНЛАР ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 108-115.
36. Murodjon Turg'un o'g, A. (2023). RESULTS OF LABORATORY ANALYSIS OF MEAT SAMPLES SUSPECTED OF TUBERCULOSIS. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 95-100.
37. Ergashevna, G. O. M. T. (2023). TUBERKULYOZGA GUMON QILINGAN QORAMOLLARDAN OLINGAN SUT TARKIBIDAGI MIKROORGANIZMLARNI ANIQLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(2), 101-107.